

SUV OMBORLARINING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

Suyarqulov Nizomiddin Maxmatqulovich

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrası
o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqola orqali suv omborlarining xalq xo'jaligidagi tarmoqlari, o'rni va ahamiyati, rejimi haqida bilishingiz mumkin. Suv omborlari barpo etishning asosiy maqsadlarini ko'rib chiqishingiz mumkin.*

Annotation: *Through this article, you can learn about the branches of water reservoirs in the national economy, their role and importance, regime. You can consider the main purposes of building reservoirs.*

Аннотация: *Благодаря данной статье вы сможете узнать об отраслях водохранилищ в народном хозяйстве, их роли и значении, режиме. Можно рассмотреть основные цели строительства водоемов.*

Kalit so'zlar: *Suv omborlari, xalq xo'jaligi, maishiy-kommunal ehtiyoj, suv resurslari, energetika, samaradorlik, gidrotexnik inshootlar*

Key words: *Water reservoirs, national economy, household and communal needs, water resources, energy, efficiency, hydrotechnical facilities*

Ключевые слова: *Водохранилища, народное хозяйство, хозяйственно-бытовые нужды, водные ресурсы, энергетика, эффективность, гидротехнические сооружения.*

Ma'lumki, suv omborlari xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini suvga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Suv omborlari barpo etishning asosiy maqsadi ham daryolar suv rejimini tartibga solish va aholining maishiy - kommunal, xo'jalik ehtiyojlarini uzluksiz suv bilan ta'minlashdan iborat. So'nggi yillarda sug'oriladigan maydonlarni kengayishi, qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va yangi yerlarning o'zlashtirilishi, suvdan energetika va boshqa maqsadlarida foydalanish hamda suv oqimlarini rostdashda suv omborlarining ahamiyati ortib bormoqda. Hozirda respublikamizda 300 ga yaqin yirik gidrotexnik inshootlar, shu jumladan 20 mlrd m² sig'imga ega bo'lgan 60 dam ortiq suv omborlari va sel omborlaridan samarali foydalanib kelinmoqda.

1.Suv omborlari barpo etish suv resurslaridan oqilona va unumli foydalanish imkonini beradi. Suv omborlarida to'plangan suv yerlarni sug'orish aholi punktlari va sanoat korxonalarini suv bilan ta'minlashda, daryo, kanallarni tozalashda, yilning qurg'oqchil davrida suv tanqisligi muammolarini bartaraf etishda keng foydalaniladi. Suv omborlaridan baliqchilik xo'jaliklarini rivojlantirish, suv transporti, dam olish, suv sporti maqsadlarida ham keng foydalanish mumkin. So'nggi yillarda mamlakatimizda daryolar suv rejimini tartibga solish bilan birgalikda suv resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida ko'plab suv omborlari tashkil etilgan. Tuyamo'yin (Amudaryo), Chordara (Sirdaryo), Tuyabo'g'iz (Ohangaron), Andijon (Qoradaryo), Quyimozor (AmuZarafshon), Oqtepa (Amu-Zang),

Janubiy Surxon (Surxondaryo), Chimqo'rg'on (Qashqadaryo), Sho'rko'l (Zarafshon), To'dako'l (Amu - Buxoro kanali), Qorovultepa (Eski Tuyatortar kanali), Uchqizil (Amu - Zang kanali), Kosonsoy (Kosonsoy), Karkidon (Isfayramsoy), Zomin (Zominsoy), Jizzax (Sangzor), Qamashi (Qorabog'daryo), Oqdaryo (Oqdaryo), Hisorak (Oqsuv), daryosida qurilgan. Suv omborlarining xo'jalikdagi ahamiyati nihoyatda katta. Mamlakatimizda daryolar suv rejimini tartibga solish maqsadida barpo etilgan suv omborlaridan xo'jalik ehtiyojlarida ham keng ko'lamda foydalanilmoqda. Qishloq xo'jaligi asosan sug'orma dehqonchilikka asoslangan.

2. Tabiiy landshaftlarning shakllanishi, o'zgarishi va yangi tiplarining paydo bo'lishida antropogen suv inshootlari muhim omil bo'lib xizmat kiladi. Suv omborlari esa lokal va mintaqaviy miqyosda, tabiiy landshaftlarning o'zgarishida eng katta ta'sir etuvchi suv inshootlaridan hisoblanadi va ularning tabiiy muhitga bo'lgan ta'sirini o'rganish tabiiy geografiya, xususan, landshaftshunoslikning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Yirik suv inshootlari (suv omborlari, kanallar, dambalar va boshqalar) qadimdan Yer sharida qurib kelingan, ularning landshaft ekologik sharoitlarga ta'siri turlicha bo'lib, turli mintaq va davlatlar iqtisodiy ijtimoiy sharoitlarining rivojlanishining asosiy omillaridan biri bo'lib kelgan. Gidrotexnika inshootlari geografiyasini, makon va zamonda tarqalishi, ular faoliyati bilan bog'liq barcha jarayon va hodisalarni o'rganish, ularning geografik muhit bilan xususiyatlarini aniqlash, tahlil qilish hamda baholash, amaliy va ilmiy ahamiyatini belgilash muhim masala hisoblanadi.

Respublikamiz hududida 50 dan ortiq suv omborlar mavjud bo'lib, har bir suv ombori qurishdan ma'lum bir maqsad ko'zlangandir. Suv omborining qanday maqsadlar uchun bunyod etilayotganligi avvalo shu hududning ehtiyojlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Bugungi kunga kelib suv omborlari faqatgina bir maqsad uchun emas, balki ko'plab maqsadlar asosida bunyod etilmoqda. Lekin respublikamiz sharoitida suv omborlari asosan qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlash va yangi yerlarni o'zlashtirish maqsadida bunyod etiladi. Aynan Sardoba suv ombori suvi bilan Sirdaryo viloyatining Oqoltin va Mirzaobod tumanlari, Jizzax viloyatining Arnasoy, Mirzacho'l va Do'stlik tumanlaridagi 146,2 ming gektar yerlarni sug'orish ko'zda tutilgan. Ya'ni, Jizzax va Sirdaryo yerlarini suv bilan ta'minlanishini yaxshilash maqsadida Sirdaryo daryosining qish va bahorgi suvlaridan tartibga solib foydalaniladi.

3. Suv omborlari daryolarning suvlari hisobiga ma'lum vaqt davomida to'ldirilib, xalq xo'jaligi tarmoqlarini kerakli vaqtda zarur miqdorda suv bilan ta'minlashga mo'ljallangan gidrotexnik inshootlar majmuasidir. Suv omborlari - asosan - ikki turga bo'linadi:

1. O'zan suv omborlari - bu daryo o'zanida suv oqimi yo'lini to'sib suv omborini hosil qilishdan iborat. O'zan suv omborlarida oqimdagi barcha loyqaliklarning katta qismi cho'kib qoladi. Buning natijasida loyqa to'lishi tezroq kechadi.

2. Quyilma suv omborlari daryo o'zanidan tashqarida, qulay relyef chuqurligi hosil bo'lgan hududlarda quriladi, va bunda suv omboriga suvni maxsus kanallar orqali yetkazib beriladi. Suv omborlariga suv nasoslar yordamida keltirilishi ham mumkin. Ularning loyqa bosishi davri juda uzoq, ammo bu suv omborlarini loyqa bosganda ularni tozalashni imkoni umuman yo'q. Shuning oldini olish maqsadida olinayotgan suvning tiniqligiga katta ahamiyat

beriladi. Suv omborini barpo qilishdan asosiy maqsad – daryo oqimi suv hajmini ichimlik suvi ta'minoti, irrigatsiya, gidroenergetika, sanoat, ekologiya, suv toshqini xavfi va boshqa talablarni ko'zda tutgan holda boshqarishdir. Suv omborlarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha belgilanadi:

- Suv omborlari – inson tomonidan barpo qilinadigan va boshqariladigan suv obyekti bo'lib, tabiat hodisalarining kuchli ta'siri ostida faoliyat yuritadi. Shuning uchun suv omborlari tabiiy va sun'iy obyektlar orasida o'rin tutadi, ya'ni ular tabiiy-texnik tizimlardir.
- Suv omborlarida o'ziga xos ichki gidrofizik, gidrokimyoviy va gidrobiologik jarayonlar yuz beradi.
- Suv omborlari boshqa inshootlarga nisbatan ko'proq iqtisodiyot tarmoqlari tomonidan foydalaniladigan va o'ziga xos suv xo'jaligi kompleksini shakllantiruvchi suv obyektlaridir.
- Suv omborlarining rivojlanish va o'zgarish dinamikasi intensiv bo'lib, u gidrometeorologik jarayonlar, ishlash rejimi, atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri kabi faktorlarga asoslanadi.
- Suv omborining atrof-muhitga ta'siri kuchli bo'lib, shu jumladan, salbiy ta'siri ham bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

**1.SCIENCE AND INNOVATIONINTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
VOLUME 1 ISSUE 6**

UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337, Olimqulov Yashnar Maxmadamin o'gli, Samadov Jamoliddin Esan o'gli, Xo'shboqova Mehriniso Gulmurod qizi, O'ZBEKISTON SUV OMBORLARI VA ULARNING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI, 226-b

**2.INNOVATION SCIENCE AND RESEARCH INTERNATIONAL SCIENTIFIC
JOURNAL (VOLUME 1 ISSUE 8) DECEMBER 2023 ISSN: 2992-8877 |
SCIENCEJOURNAL.UZ, T.A.Xo'jakulov (PhD) dotsent, S.A.Raximberdiyev, SUV
OMBORLARIDAGI SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNI TIZIMLI TAHLILI
VA MUHOFAZA QILISH USULLARI, 7-b**

**3.JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, Qo'shmatov Botirbek
Berikboy o'g'li, SARDOBA SUV OMBORI VA ULARNING XALQ XO'JALIGIDAGI
AHAMIYATINI Baholash, 106-b**

4.SUV OMBORLARI GIDROLOGIYASI, Ikramova Malika, 7-10-b